

# Xalq so‘zi

O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 6-oktyabr, № 207 (9378) Seshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# YAPONIYADA BO‘LIB O‘TGAN XX YOZGI OSIYO O‘YINLARIDA ISHTIROK ETGAN O‘ZBEKISTON SPORT DELEGATSIYASI A’ZOLARIGA

Hurmatli sportchi va murabbiylar!
Qadrli farzandlarim!

Siz, azizlarni Yaponiyaning Aichi-Nagoya shahrida bo‘lib o‘tgan XX yozgi Osiyo o‘yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, tom ma’noda tarixiy natijalarni qo‘lga kiritganingiz bilan chin yurakdan samimiy tabriklayman.

Vatanimiz bayrog‘ini baland ko‘tarib, yurtimizga yorug‘ yuz, yorqin g‘alabalar bilan qaytib kelganingiz muborak bo‘lsin!

Sizlar Osiyo mintaqasining 45 davlatidan 11 mingga yaqin sportchi ishtirok etgan, g‘oyat keskin kurashlar ostida o‘tgan ushbu nufuzli musobaqada chinakam mahorat, jasorat va matonat fazilatlarini namoyon etib, mamlakatimiz sporti tarixida yana bir buyuk sahifa ochdingiz.

Milliy terma jamoamiz 21 ta oltin, 25 ta kumush va 24 ta bronza medal bilan Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya va Hindiston bilan birga qit’amizning eng kuchli beshligi safidan joy olgani Yangi O‘zbekistonning sport sohasidagi ulkan salohiyatidan, mard va bahodir farzandlarimizning qanday ulug‘ ishlarga qodir ekanidan dalolatdir.

Bu, hech shubhasiz, barchamizga, ko‘p millatli xalqimizga cheksiz g‘urur bag‘ishlaydi.

O‘zbekiston ushbu o‘yinlarda Markaziy Osiyo va Islom hamkorlik tashkiloti davlatlari orasida birinchi o‘rinni egallagani ham tahsinga sazovor.

Dastlab Abdulvahob Rashidov karate, Shohsanam Sherzodova kanoeda eshkak eshish va O‘tkirbek Jo‘rayev sport gimnastikasi bahslarida Osiyo o‘yinlaridagi ilk oltin medallarimizni olgani terma jamoamiz a’zolarini yuksak marralar sari ruhlantirdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yengil atletikachimiz Suhrob Xo‘jayev bosqon uloqtirish yo‘nalishida Osiyo o‘yinlarining oltin medalini qo‘lga kiritgan birinchi o‘zbek sportchisi bo‘ldi.

Yana bir yengil atletikachimiz Sharifa Davronova, bokschimiz Abdumalik Xalokov ikki karra, badiiy gimnastikachimiz Taxmina Ikromova uch karra Osiyo o‘yinlari chempioni bo‘ldi va qit’ada tengsiz ekanini isbotladi.

Akademik eshkak eshish bo‘yicha jahon chempionatida tarixiy oltin medalni qo‘lga kiritgan Shahzod Nurmatov va Sobir Safaroliyev juftligi Osiyoda ham yetakchilikni saqlab qoldi.

Mardimaydon yigit-qizlarimiz Osiyo va jahon rekordini yangilab, sport tarixiga o‘z nomlarini zarhal harflar bilan muhrlab qo‘yganlari barchamizni mamnun etadi. Jumladan, afsonaviy og‘ir atletikachimiz Akbar Jo‘rayev 197 kilogramm natija bilan jahon va qit’a rekordini yangilashga erishdi.

Vladimir Svechnikov O‘zbekistonga o‘q otish bo‘yicha Osiyo o‘yinlarining ilk oltin medalini tuhfa qildi.

Dzyudochimiz Muzaffarbek To‘raboyev finalda yaponiyalik nomdor raqibi Ota Hyogani mag‘lub etib, Osiyo o‘yinlarida ikki vazn toifasida qo‘li baland kelgan ilk chempion sifatida tarixga kirdi.

Dzyudochi yigit-qizlarimiz 2 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medalini qo‘lga kiritib, dzyudo vatani bo‘lgan Yaponiyadan keyin umumjamoa hisobida ikkinchi o‘rinni egallagani salmoqli natijadir.

Uch ming yillik tarixga ega bo‘lgan milliy kurashimiz vakillari ham xalqimiz ishonchini oqladi. Ushbu sport turi bo‘yicha 6 ta oltin medalning to‘rttasi bizga nasib etgani kurashsevar xalqimizga o‘zgacha g‘urur bag‘ishladi.

Yuksak sabot va shijoat ko‘rsatgan har bir sportchimizning nomi e’tirofga, ehtiromga loyiqdir.

Mana shunday ulkan g‘alabalar tarixi, mahorat maktabini yaratayotgan, Alpomish va To‘maris vorislari bo‘lgan o‘g‘lonlarimiz va qizlarimizga shon-sharaflar bo‘lsin!

Aziz do‘stlar!

Osiyo o‘yinlaridagi har bir yutuq, har bir hayajonli daqiqa biz uchun o‘ziga xos bayram, zavq va quvonch ayyomi ekanini qariyb bir oy davomida barchamiz chin dildan his etdik.

Albatta, bepoyon Osiyo qit’asining o‘ziga xos Olimpiya o‘yinlari bo‘lgan ushbu musobaqalarda erishilgan yuksak natijalar o‘z-o‘zidan kelgani yo‘q. Ularning zamirida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar, yosh iste’dod egalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz mujassamdir.

Fursatdan foydalanib, bizga unutilmas g‘alabalarni taqdim etgan barcha sportchilarimizga, ularning ota-onalariga, oltinga teng o‘gitlari bilan zafarlarga munosib hissa qo‘shgan jonkuyar ustoz-murabbiylarga, atletlarimizni doimo qo‘llab-quvvatlab turgan ko‘p sonli muxlislarga samimiy minnatdorlik izhor etaman.

Sizlar Osiyo o‘yinlaridagi muzaffar yurishingiz bilan yurtimizda Olimpiya harakati yangi bosqichga ko‘tarilgani, oltin avlod shakllanganini butun dunyoga namoyon etdingiz. Zero, Yangi O‘zbekiston yoshlariga beqiyos aql-zakovat barobarida ulkan jasorat va matonat yarashadi.

Ishonchim komil, Yaponiya zaminida to‘plangan qimmatli tajriba 2028-yilda Los-Anjelesda o‘tadigan Olimpiya o‘yinlari uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Sizlar sayyoramizning eng nufuzli o‘yinlariga ham albatta munosib tayyorgarlik bilan borasiz! Kelgusi faoliyatingiz ham albatta yorqin zafarlarga boy bo‘ladi!

Yangi O‘zbekistonning buyuk sport solnomasini boyitishda sizlarga hamisha yutuq va omad yor bo‘lsin, aziz farzandlarim!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

# O‘ZBEKISTON SPORTI SALOHIYATINING YANA BIR YORQIN IFODASI



*Yaponiyaning Aichi va Nagoya shaharlarida o‘tkazilgan XX Osiyo o‘yinlarida Vatanimiz sharafini munosib himoya qilib, yurtimizga salmoqli natijalar bilan qaytgan sportchilarimiz Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida tantanali kutib olindi.*

*...Yuzlarda tabassum, qo‘llarda O‘zbekiston bayrog‘i. Mehr va faxr bilan sportchilarni kutayotgan muxlislar safida bolalar ham, keksalar ham, sport sohasi vakillari ham bor. Nigohlarda bir his – Vatan farzandlarining zafariga daxldorlik iftixori.*






Nihoyat, samolyot trapida sportchilar ko‘rindi. Yaponiyadagi murosasiz bahslarda mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilgan sportchilarimizning ko‘ksini medallar shodasi bezagan. Qarsaklar, olqishlar va gullar bilan kutib olingan chempionlar uchun bu daqiqalar quvonch va hayajoni unutilmas xotiraga aylandi.

Tantanali marosimda hukumat vakillari, Sport vazirligi, O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi va Paralimpiya qo‘mitasi rahbariyati, Toshkent shahar hokimligi, sport jamoatchiligi, murabbiylar hamda muxlislar qatnashdi.

Marosimda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov ishtirok etdi va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sportchilarga yo‘llagan tabrigini o‘qib eshittirdi.

Shundan so‘ng chempionlar va ularning murabbiylari musobaqa jarayoni, hal qiluvchi bahslar, g‘alabaga eltgan mashaqqatli tayyorgarlik va Yaponiyada kechgan hayajonli lahzalar haqida so‘zlab berdi. Marosim kuy-qo‘shiqlar, samimiy tabriklar va olqishlarga ulandi.

➡ 4

# O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TOJIKISTON PREZIDENTINI TAVALLUD KUNI BILAN TABRIKLADI

**5-oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.**

Davlatimiz rahbari Tojikiston yetakchisini tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va birodar Tojikiston xalqining ravnaqi yo‘lidagi mas’uliyatli davlatchilik faoliyatida katta muvaffaqiyatlar tiladi.

O‘zbekiston – Tojikiston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Hamkorlik barcha yo‘nalishlarda jadallashib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi barqaror o‘sib bormoqda, transport, energetika, geologiya, qishloq va suv xo‘jaligi hamda boshqa sohalarda o‘zaro manfaatli sheriklik davom etmoqda.

Hududlar o‘rtasida va madaniy-gumanitar jabhada faol almashinuvlar amalga oshirilmoqda.

Yetakchilar mintaqaviy kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar, bo‘lajak ikki va ko‘p tomonlama tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

**O‘zA.**

# NEFT VA GAZ TARMOG‘INI YANADA RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN YIRIK LOYIHALAR

**Prezident Shavkat Mirziyoyev neft va gaz tarmog‘ida amalga oshirilayotgan yirik loyihalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.**

Joriy yilda “O‘zbek-neftgaz” AJ faoliyatini takomillashtirish, xaridlar va ishlab chiqarish bilan bog‘liq masalalarni hal etishga qaratilgan ikkita qaror qabul qilindi.

Taqdimotda ushbu qa-rorlarning ijrosini ta’minlash, tabiiy gaz qazib chiqarish ko‘rsatkichlari hamda yil yakunigacha amalga oshirilishi mo‘ljallangan tadbirlar ko‘rib chiqildi.

Gaz zaxiralarini ko‘paytirish maqsadida geologiya-qidiruv ishlari kengaytirilmoqda. Jumladan, joriy yilda “3D” seysmik razvedka ishlarining hajmi o‘tgan yildagiga nisbatan 5 barobarga oshirish rejalashtirilmoqda. Yil boshidan beshta yangi gaz koni ochildi, hududlarda 6000 metrgacha va undan ortiq chuqurliklarga 80 ta quduq burg‘ilangan bo‘lsa, to‘rtinchi chorakda ushbu quduqlardan yana 40 tasini burg‘ilash reja qilingan.

Istiqbolli maydonlarni, ayniqsa, Ustyurtning katta chuqurlikdagi qatlamlarni o‘rganish, yangi konlarni o‘zlashtirish hamda mavjud quduqlar samaradorligini oshirish bo‘yicha rejalar taqdimot qilindi.

Ushbu maqsadlarda burg‘ilash ishlarini yangi bosqichga olib chiqish, jarayonlarga zamonaviy texnologik yechimlarni olib kirish muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli hozirda Ustyurt hududida xorijiy hamkorlar bilan birgalikda yangi quduqlarni burg‘ilash, geofizik ma’lumotlarni qayta tahlil qilish hamda gaz qazib olish samaradorligini oshirish yuzasidan bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Taqdimotda “O‘zbek-neftgaz” AJ va uning tasarrufidagi yirik korxonalarning moliyaviy natijalari ham tahlil qilindi. Joriy yilning to‘qqiz oyi yakuni bilan korxonalarning jamlangan sof foydasi o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan o‘sgan, kredit portfelini maqbullashtirish natijasida esa qarzdorlik kamaygan, yuqori foizli kreditlar shartlarini qayta ko‘rib chiqish orqali foiz xarajatlarini tejashga erishilgan.

Taqdimot doirasida gaz transport tizimining o‘tkazuvchanlik quvvatini oshirishga doir loyihalarga alohida to‘xtalib o‘tildi. Unda yangi magistral gaz quvurlarini qurish, kompressor stansiyalarini modernizatsiya qilish kabi tadbirlar qamrab olinadi.

(Davomi 2-betda).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yigirmanchi yalpi majlisi to‘g‘risida

# AXBOROT

**3-oktyabr kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yigirmanchi yalpi majlisi o‘z ishini davom ettirdi.**

Unda Senat, hukumat a’zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a’zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o‘tkazilgan yalpi majlisni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning “YouTube” tarmog‘idagi sahifasi orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoritib borildi.

Yigirmanchi yalpi majlisning ikkinchi ish kuni qurilish sohasida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish yuzasidan yuborilgan parlament so‘rovi natijalarini ko‘rib chiqishdan boshlandi.

Ta’kidlanganidek, qurilish sohasi mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti, aholi uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish, investitsiyalarni jalb etish hamda zamonaviy infratuzilmani shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bois sohada korrupsiyaviy xavflarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish hamda nazorat mexanizmlarining samaradorligini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

➡ 2

**Nuqtai nazar**

# MILLAT VA MAS’ULIYAT

**Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ustoz va murabbiylar bilan uchrashuvda ta’lim sohasi bo‘yicha yangi tashabbuslarni ilgari surdi**

2016-yilda biz mustabid tuzum davridan qolgan, mustaqillikning dastlabki 25 yilida ham davom etgan ta’lim va ilm-fan inqirozini bartaraf qilishga kirishdik. Birinchi navbatda, bu inqirozning bosh sababi bo‘lgan majburiy mehnat batamom tugatildi. Maktab muallimi, o‘quvchisi, professor-o‘qituvchi, talaba ongiga o‘rnashib qolgan qullik, fikrsizlik, befarqlik illatlari ildizi bilan qo‘porib tashlandi. O‘tgan o‘n yil maktabgacha ta’lim muassasalari, maktablar, oliy o‘quv yurtlari moddiy-texnika bazasini tiklash davri bo‘ldi. Oldinda esa yangi sifat bosqichi, yangi marralar turibdi.

➡ 3

**Xalqchil qonun**

# BOLA XAVFSIZLIGINING MUHIM KAFOLATI

*Bolalik – inson hayotidagi eng beg‘ubor, eng himoyaga muhtoj davr. Har bir bola oilasida, maktabda va jamiyatda o‘zini xavfsiz his qilishi, zo‘ravonlikdan xoli muhitda ulg‘ayishi kerak. Ammo hayotdagi ayrim ayanchli holatlar bu borada hali yechimini kutayotgan muammolar borligini ko‘rsatmoqda.*



Yaqinda “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi tashabbusi bilan ishlab chiqilgan bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoyalash tizimini takomillashtirish, bunday qilmishlar uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi Qonunchilik palatasida qabul qilinib, Senatda ma’qullandi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining fikr-mulohazalari mazkur qonunning mazmun-mohiyati haqida.

➡ 3

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 6-oktyabr

# NEFT VA GAZ TARMOG‘INI YANADA RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN YIRIK LOYIHALAR

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Mazkur loyihalarning amalga oshirilishi, shuningdek, ayrim stansiyalarda zamonaviy elektr dvigatellarini ishga tushirish, gaz yetkazib berish barqarorligini oshirish hamda yiliga 125 million kubometr gaz tejash imkonini beradi. Shu munosabat bilan ularni amalga oshirishni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha takliflar ham ko‘rib chiqildi.

Taqdimotda “Mustaqillikning 25 yilligi” konida yuzaga kelgan avariyani bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga alohida to‘xtalib o‘tildi. Ushbu ishlarga Xitoyning ixtisoslashtirilgan kompaniyasi jalb qilingan bo‘lib, hozirda maxsus texnika va uskunalar ish joyiga safarbar qilinmoqda, quduqlarni burg‘ilash joylarida tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Avariyani bartaraf etish jarayonining barcha bosqichlarida xavfsizlik talablariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash eng muhim masalalardan biri ekanligi qayd etildi.

Taqdimotda yana bir yirik loyiha – Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodida ishlab chiqarishni ko‘paytirish va uni moliyaviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ham axborot berildi.

Hozirda zavodda asosiy texnologik qurilmalar ta’mirlangani natijasida dizel yonilg‘isi ishlab chiqarishni 30 foizga, bitum 60 foizga, aviakerosin esa 5 barobarga oshirishga erishilgan.

Kelgusida zavodni xomashyo bilan barqaror ta’minlash, mavjud quvvatlardan samarali foydalanish hamda qarzdorlikni kamaytirish bo‘yicha keng qamrovli tadbirlar amalga oshiriladi. Yil oxiriga qadar zavod yuklamasi 40 foizdan 65 foizga yetkaziladi va keyinchalik oshirib boriladi.

Davlatimiz rahbari geologiya-qidiruv va burg‘ilash ishlari natijadorligini oshirish, yirik loyihalarni puxta hisob-kitob va aniq moliyalashtirish manbalari asosida olib borish, tarmoq korxonalari faoliyatida samaradorlikka alohida e’tibor berish yuzasidan mas’ullarga tegishli ko‘rsatmalar berdi.

**O‘zA.**

## Xalqaro anjuman

# KUN TARTIBIDA – GLOBAL VA MINTAQAVIY AHAMIYATGA EGA DOLZARB MASALALAR

*Kecha Tanzaniyaning Arusha shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 153-assambleyasi o‘z ishini boshladi.*

Tanzaniya Milliy assambleyasi mezbonligida tashkil qilingan nufuzli tadbirda dunyoning 180 dan ziyod mamlakatlaridan 2 mingdan ortiq parlamentlarning spikerlari, deputatlari va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etmoqda.

Assambleya ishida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O‘zbekiston parlamenti delegatsiyasi ham qatnashmoqda.

Tadbirning bosh mavzusi – “Inklyuzivlik, ishonch va barcha uchun imkoniyatlar orqali samarali boshqaruvni takomillashtirish hamda jamiyatlar imkoniyatlarini kengaytirish”.

Assambleya va yalpi majlislar doirasida inklyuziv ijtimoiy rivojlanish, inson huquqlarini ta’minlash, sun’iy intellektdan foydalanish, iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi, nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish hamda terrorizmga qarshi kurashish kabi global va mintaqaviy ahamiyatga ega dolzarb masalalar muhokama etiladi.

Assambleya doirasida Parlamentlararo Ittifoqning yangi prezidentini saylash ham nazarda tutilgan.

**Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.**

## Uchrashuv

# MAHALLIY KENGASHLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGI YO‘LIDA

*Hududlarda mahalliy Kengash deputatlari faoliyatini yanada takomillashtirish, mahalliy Kengashlarning vakolatlarini samarali amalga oshirish hamda deputatlarning qonunchilikdagi yangiliklardan xabardorligini ta’minlashga qaratilgan uchrashuvlar muntazam ravishda tashkil etib kelinmoqda.*

Shu maqsadda Oliy Majlis Senatida Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiya raisi Anvar To‘ychiyevning xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi deputatlari bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Unda Senat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar va ma’qullanayotgan qonunlarning mazmun-mohiyati yuzasidan batafsil ma’lumot berildi. Shuningdek, mazkur hujjatlarning ahamiyati, amaliy natijalari hamda aholi farovonligini ta’minlashdagi o‘rni atroflicha tushuntirildi.

Muloqot davomida mahalliy Kengashlar faoliyati samaradorligini yanada oshirish, Kengash qarorlarini qonunchilik talablari asosida qabul qilish, qonunlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, qonun ijodkorligini qo‘llab-quvvatlash hamda Kengash sessiyalarida mas’ul tashkilotlar hisobotlarini muntazam eshitish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, mahalliy Kengash vakillari Senatning yigirmanchi yalpi majlisida ham qatnashib, ko‘rib chiqilgan qonunlar hamda boshqa muhim masalalar muhokamasida ishtirok etdi.

**“Xalq so‘zi”.**

## O‘zbekiston RespublikasiOliy Majlisi Senatining yigirmanchi yalpi majlisi to‘g‘risida

# AXBOROT



Yunus BoO‘RIYEV olgan surat.

1

Parlament so‘rovi doirasida Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavflarni baholash, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, davlat xaridlarining shaffofligini ta’minlash, davlat arxitektura nazoratini kuchaytirish va sohani raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar o‘rganildi.

Jumladan, korrupsiyaviy xavflarni funksional baholash natijasida 95 ta past, 10 ta o‘rta va 1 ta yuqori xavfli yo‘nalish aniqlangan. Shuningdek, davlat arxitektura nazorati tadbirlari davomida 1,65 mingta qonunbuzilish holati hamda 1,1 mingta o‘zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshoot aniqlangan. Mazkur holatlar bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilib, 624 ta holatda ma’muriy choralar qo‘llanilgan, jarimalarning umumiy miqdori 68,6 milliard so‘mni tashkil etgan.

Shu bilan birga, sohada raqamli nazorat mexanizmlarini kuchaytirish maqsadida “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi o‘zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshootlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan avtomatlashtirilgan tizim bilan ta’minlangan hamda “Notarius”, “E-ma’muriy ish”, “Adolat” va “UzKad” axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan.

Davlat xaridlari sohasida “Masofaviy audit” mexanizmidan foydalanish natijasida 3 milliard so‘mlik tenderda qonunbuzilishning oldi olingan, 869,5 million so‘mlik qonunbuzilish materiallari huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.

Majlisda qurilish sohasida korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishda normativ talablarning aniq va tushunarli bo‘lishiga ham alohida e’tibor qaratildi. Vazirlik tomonidan 105 ta eskirgan normativ-texnik hujjat qayta ishlangan, 76 ta hujjatning majburiy maqomi bekor qilinib, ma’lumot uchun tavsiyaviy toifaga o‘tkazilgan.

Senatorlar o‘z chiqishlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda qonunbuzilish sodir etilganidan keyin chora ko‘rish bilan cheklanib qolmasdan, ularga imkon berayotgan tizimli omillarni bartaraf etish, inson omilini qisqartirish, qaror qabul qilish jarayonlarining shaffofligini ta’minlash zarurligiga e’tibor qaratdi.

Muhokama yakunlari bo‘yicha vazirlikka korrupsiyaviy xavflarni muntazam qayta baholash, yuqori xavfli yo‘nalishlar bo‘yicha nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalarning haqqoniyligi va to‘liqligini tahlil qilish, davlat xaridlarida shaffoflikni ta’minlash, arxitektura nazoratida aniqlangan qonunbuzilishlarning tizimli sabablarini bartaraf etish hamda raqamli nazorat mexanizmlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Muhokama yakunida Senatning tegishli qarori qabul qilindi.

Yalpi majlisda “Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti Toza energiya markazi Ustavini (2021-yil 27-noyabr, Ashxobod) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun muhokama qilindi.

Mazkur Ustav Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar o‘rtasida toza va qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish hamda past uglerodli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha hamkorlikning huquqiy asoslarini belgilaydi.

Ustavga muvofiq Toza energiya markazi a’zo davlatlar o‘rtasida hamkorlikni muvofiqlashtiradi, qayta tiklanuvchi energetika va energiya samaradorligi bo‘yicha mintaqaviy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga ko‘maklashadi, xalqaro moliyaviy va texnik resurslarni jalb etish, shuningdek, energetika sohasida tajriba va ma’lumot almashinuvini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Ustavning ratifikatsiya qilinishi O‘zbekistonning Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar bilan “yashil” energetika sohasidagi hamkorligini kengaytirish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, xalqaro moliyaviy resurslar, grantlar va investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini oshiradi.

Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot va kadrlar salohiyatini rivojlantirish, ilg‘or texnologiya va tajribalarni joriy etish hamda iqlim o‘zgarishiga qarshi mintaqaviy sa’y-harakatlarni birlashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi.

Senatorlar ta’kidlaganidek, mazkur hujjatning amalga kiritilishi mamlakatimizning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, energiya samaradorligini oshirish va past uglerodli rivojlanish bo‘yicha maqsadlarini ro‘yobga chiqarish, shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasida energetika sohasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlashga zamin yaratadi.

Senatorlar qonunni ma’qulladi.

Shundan so‘ng “Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iz Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston, O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida abadiy yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi Shartnomani (Ostona, 2025-yil 17-iyun) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, mazkur Shartnoma “Markaziy Osiyo — Xitoy” formati doirasida imzolangan birinchi ko‘p tomonlama xalqaro shartnoma hisoblanib, Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikning huquqiy asoslarini belgilab beradi.

Shartnomada davlatlarning suveren tengligi, hududiy yaxlitligi, ichki ishlarga aralashmaslik, kuch ishlatmaslik va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish tamoyillari asosida strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, hujjatda siyosiy muloqot mexanizmlarini kengaytirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish, transport-kommunikatsiya aloqalarini kuchaytirish, energetika, sanoat kooperatsiyasi, raqamli texnologiyalar, “yashil” taraqqiyot va gumanitar sohalardagi hamkorlikni chuqurlashtirish belgilangan.

Shartnomaning amalga oshirilishi Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘lini barpo etish, transport yo‘laklarini rivojlantirish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, “Elektron Ipak yo‘li” savdo platformasini rivojlantirish kabi muhim loyihalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Senatorlarning fikricha, qonun O‘zbekistonning Markaziy Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi hamkorlik jarayonlaridagi ishtirokini faollashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, eksport va tranzit salohiyatini oshirish, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash hamda xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro anglashuvni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma’qulladi.

Senatning yalpi majlisi davomida “O‘zbekiston Respublikasi bilan Pokiston Islom Respublikasi o‘rtasida mahkumlarni topshirish to‘g‘risidagi Bitimni (Islomobod, 2026-yil 5-fevral) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun muhokama qilindi.

Mazkur Bitim qoidalariga muvofiq O‘zbekiston va Pokiston ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o‘tayotgan mahkumlarni jazoning qolgan qismini fuqarosi bo‘lgan davlatida o‘tashi uchun topshirish masalalarida o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Hujjatda mahkumni topshirish shartlari, rad etish asoslari, markaziy organlar, so‘rovning shakli va mazmuni, jazoni ijro etish jarayonlari, tranzit olib o‘tish hamda xarajatlarni qoplash tartibi aniq belgilab qo‘yilgan.

Senatorlarning fikricha, ushbu qonunning qabul qilinishi chet elda jazo o‘tayotgan fuqarolarimizning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy reabilitatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ikki davlat o‘rtasidagi huquqiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, insonparvarlik tamoyillarini amalda ta’minlash hamda jazoni ijro etish sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Senatorlar qonunni ma’qulladi.

Shuningdek, Senatning yalpi majlisida “Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar o‘rtasida Shanxay hamkorlik tashkilotining Giyohvandlikka qarshi kurashish markazi to‘g‘risidagi Bitimni (Tyanszin, 2025-yil 1-sentyabr) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun ko‘rib chiqildi.

Mazkur Bitim bilan Shanxay hamkorlik tashkilotining doimiy faoliyat yurituvchi organi – Giyohvandlikka qarshi kurashish markazi ta’sis etilmoqda. Markazning joylashgan joyi etib Tojikiston Respublikasining Dushanbe shahri belgilangan.

Markaz a’zo davlatlar vakolatli organlarining giyohvand moddalar va ularning prekursorlarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishdagi hamkorligini muvofiqlashtirish, kelishilgan tezkor-profilaktik tadbirlarni rejalashtirish, transmilliy uyushgan jinoiy guruhlar faoliyatiga chek qo‘yish hamda mintaqadagi narkotik vaziyatni monitoring va tahlil qilish vazifalarini bajaradi.

Senatorlarning ta’kidlashicha, mazkur qonunning qabul qilinishi giyohvandlik va narkojinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, hamkor davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish hamda fuqarolarimiz salomatligi va mamlakatimiz xavfsizligini ishonchli ta’minlashga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma’qulladi.

Shundan keyin “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonun muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, qonunning asosiy maqsadi ma’muriy organlar faoliyatida yagona huquqiy standartlarni belgilash va aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishdan iborat.

Qonunda bir qator ijobiy va zarur normalar o‘z aksini topgan. Xususan, ma’muriy tartib-taomillarning muhim prinsiplari, dalillarni to‘plash, ma’muriy aktlarni qabul qilish va ijro etish bosqichlari mustahkamlangani davlat organlari faoliyati qonuniyligining protsessual kafolatlarini va fuqarolarning huquqlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, muhokamalar davomida Senat a’zolari qonunda amaliyotda qo‘llashda qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin bo‘lgan ayrim tizimli huquqiy muammolar, kamchiliklar, bo‘shliqlar mavjudligini, shuningdek, tushunchalar noaniq ekanini ta’kidladilar.

Qonundagi ayrim normalar amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlariga to‘liq moslashtirilmagan. Masalan, qonunda ma’muriy aktlar ustidan sudga qadar shikoyat qilish sudda nizolashishning majburiy sharti etib belgilanmoqda. Biroq Konstitutsiyaning 55-moddasida har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan. Bu esa ijro jarayonida turlicha talqin qilish va huquqni qo‘llash amaliyotida chalkashliklarni keltirib chiqarish xavfini tug‘diradi.

Ma’muriy organlar tomonidan qarorlar qabul qilish va ularni shikoyat qilish tartiblari aniq va mukammal belgilanmagani sababli ushbu normalar amaliyotda fuqarolar manfaatlarini to‘liq himoya qila olmasligi mumkin.

Qonunda ayrim talablarni mahalliy darajadagi davlat organlari tomonidan to‘liq bajarish uchun tashkiliy-huquqiy va infratuzilmaviy sharoitlar yetarli darajada baholanmagan.

Senatorlarning ta’kidlashicha, ma’muriy tartib-taomillarni tartibga soluvchi qonun to‘liq va mukammal bo‘lishi, jamiyatda byurokratiyani qisqartirishga va fuqarolar huquqlarini haqiqatda himoyalashga xizmat qilishi shart.

Muhokama yakunida Senat a’zolari qonunni taqdim qilingan tahrirda ma’qullash maqsadga muvofiq emas degan xulosaga kelib, uni rad etdi.

Yalpi majlisda jamiyat hayotining barcha sohalari huquqiy asoslarini mustahkamlashga va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samaradorligini oshirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 16 ta masala, shu jumladan, 15 ta qonun ko‘rib chiqildi.

Shuning bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yigirmanchi yalpi majlisi yakunlandi.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot xizmati.**

# HAMKORLIKNING MADANIY KO‘PRIGI

*Buxoro azaldan Sharq va G‘arb madaniyatlari o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tab kelgan. Bugungi kunda bu an’ana davom etyapti. Ko‘hna shaharda Fransiya madaniyati kunlari bo‘lib o‘tayotgani ham yuqoridagi fikr tasdig‘idir.*

## Tadbir

– San’at insonlarni o‘zaro birlashtiradi, ular o‘rtasidagi hurmat-e’tiborni mustahkamlaydi, – deydi fransiyalik taniqli pianist Kristin Fonlyupt. – Men uchun boy madaniy-ma’rifiy tarixga ega Buxoro shahrida, qadimiy kentning yuragi sanalgan Poyi Kalon maydonida o‘z konsertimni namoyish etmoq katta sharafdir.

Turli davr va madaniyatlarni bog‘lovchi o‘ziga xos bu konsert dasturi buxoroliklar hamda shahar mehmonlarida katta taassurot qoldirdi. Bungacha esa yana bir qadimiy go‘sha – Sitorai Mohi Xosada “Provans va impressionizm nurida” deb nomlangan san’at ko‘rgazmasi ochilgandi. Undan Fransiyaning janubida joylashgan Provans mintaqasining ajoyib tabiati, xususan, dorivor lavanda maydonlari, O‘rta yer dengizi peyzaji, qadimiy qishloqlarning betakror manzaralari aks etgan kartinalar o‘rin olgan.

Madaniy va gumanitar aloqalar qamrovini yanada kengaytirishga xizmat qiladigan har ikkala tadbirda Fransiyaning O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Ualid Fuk mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar izchil rivojlanayotganini ta’kidladi.

Fransiya madaniyati kunlari doirasidagi tadbirlar davom etmoqda.

**Istam IBROHIMOV (“Xalq so‘zi”).**



**Prezidentimizning tegishli qaroriga ko‘ra, 2027-yil 1-yanvarga qadar davlat organlari va tashkilotlarida “Xavfsiz va hurmatga asoslangan ish muhiti” axborot portali joriy etiladi.**

# MILLAT VA MAS’ULIYAT

## Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ustoz va murabbiylar bilan uchrashuvda ta’lim sohasi bo‘yicha yangi tashabbuslarni ilgari surdi

1

### “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur”

Prezidentimiz ustoz-murabbiylar, professor-o‘qituvchilar bilan uchrashuvda butunlay yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Bu nimani anglatadi? Bugun kechagiday yashab bo‘lmaydi. O‘tmish xatolaridan xulosa chiqarib, kelajak rejalarini belgilab olishimiz zarur.

Avvalo, biz maktab bitiruvchisining yangi darajasi qanday bo‘lishi kerak, nimaga yosh yigit-qizlar o‘n bir yil o‘qib, hech bo‘lmaganda bironta xorijiy til yoki hunarni o‘rganmasdan maktabni tark etyapti, degan savollarga javob izlashimiz kerak. Maktab bitiruvchisining darajasi zamon talablaridan kelib chiqib, jahon standartlariga moslashtirilishi lozim. Ularning hammasi oliy o‘quv yurtida o‘qishini davom ettirmaydi. Buning natijasida yoshlarimizning ma’lum qatlami hayotda o‘z o‘rnini topishga qiynaladi. Bir so‘z bilan aytganda, boshi berk ko‘chaga kirib qoladi. Chuqur o‘ylab qaraganda, o‘n sakkiz yoshgacha hunar o‘rganmagan, xorijda ishlash uchun til bilmaydigan yigit-qizlar nafaqat ota-onasiga, balki jamiyatga ham og‘ir yukdir. Biz bu vaziyatni zudlik bilan bartaraf qilmas ekanmiz, kambag‘allik degan illatdan ham qutula olmaymiz.

Kambag‘allik qanday paydo bo‘ladi? Muammoning bosh sababi – ilm va hunarsiz yoshlarning jamiyatga qo‘shilishi. Biz, avvalo, kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi sabablar bilan kurashishimiz kerak. Qo‘lida hunari bor odamga ish doim topiladi. Til bilganlar xorijda ham kunini ko‘raveradi. Shu bois bu borada maktabning mas’uliyatini oshirish kerak.

Oliy ta’lim tizimi ham yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Oliy o‘quv yurtlari, professor-o‘qituvchilar jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchdir. Buning uchun olimlar uyg‘oq va fidoyi bo‘lishi – jamiyat duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni kamida o‘n yil oldindan ko‘ra olishi kerak.

Bugun oliy o‘quv yurti bilan ishlab chiqarish o‘rtasida yaqinlik, hamjihatlik yetishmayapti. Aslida, har ikkala tomonning maqsadi bir bo‘lishi kerak. Oliy o‘quv yurtlari ishlab chiqaruvchi talablaridan kelib chiqib o‘quv dasturlariga o‘zgartirish va tuzatishlar kiritishi, nazariya va amaliyotni birga olib borishdan manfaatdor bo‘lishi zarur. Shu paytgacha aravani hamma bilgan tomoniga tortdi, lekin endi bunday ishlashni ham, yashashni ham davom ettirib bo‘lmaydi.

Bugungi kunda oliy o‘quv yurtlarining dasturlari, darsliklari, o‘quv rejalari ma’naviy jihatdan eskirgan, zamon talablariga javob bera olmaydi. Professor-o‘qituvchilarimizda vatanparvarlik, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik, fidoyilik yetishmayapti. Bugun jamiyatga Behbudiylar, Fitratlar, Avloniylar kerak.

So‘nggi yillarda mamlakatimizning eng chekka qishloq, tumanlarigacha sanoat kirib bordi, zamonaviy texnologiyalar olib kelindi, dehqonchilik madaniyati ortdi, qishloq xo‘jaligida klasterlarga asos solindi, mulkchilik shakli o‘zgardi, eng asosiysi, odamlar ongi va tafakkuri yangilandi. Prezidentimizning ochiqlik siyosati tufayli biz dunyoga yuz tutdik. Ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari paydo bo‘ldi, ularsiz hayotimizning biron-bir jabhasini tasavvur qilib bo‘lmay qoldi. Yangi O‘zbekiston uchun yangi bilim, yangi fan, zamonaviy kadrlar suv bilan havodek zarur. Bundan ham muhimi, bugun jamiyatga sog‘lom fikr, toza qon har qachongidan ham ko‘proq kerak.

Shu nuqtayi nazardan, jahon ilm-faniga integratsiyalashish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Busiz taraqqiy qilib bo‘lmaydi. Jahon ilm-fanidan ortda qolish halokatlidir. Ilm-fan va ta’lim, eng avvalo, muallimlar, professor-o‘qituvchilar va ziyolilardan daxldorlikni, mas’uliyatni, vijdonni, bedorlikni talab etadi. Millat yo‘lboshchisi, Yangi O‘zbekiston me’mori Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev anglagan haqiqatlarni biz ham anglashimiz, chuqurroq tushunishimiz, faoliyatimizni davlat rahbari ilgari surgan tashabbuslar asosida qurishimiz shart va zarur. Bundan boshqacha yashab bo‘lmaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’kidlaganidek: “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur”.



Nazarimda, universitetlarimiz professor-o‘qituvchilari tarkibiga yangi kuchlar kirib kelishi zarur. Yosh olimlar dunyoning yetakchi universitetlarida ikki, uch, hatto to‘rt yil tahsil olib, ilmiy-ijodiy muhitni o‘ziga singdirishi, zamonaviy tadqiqot olib borishni o‘rganishi, ilmiy natijalarni tijoratlashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak. Ana shundagina oliy o‘quv yurtlarining ilmiy tadqiqotlari mag‘zida jiddiy o‘zgarish yuz beradi va bu, o‘z navbatida, ta’lim sifatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

### Xalqaro tajribaga asoslangan ta’lim

Keyingi yetti-sakkiz yil davomida Samarqand davlat universitetida O‘zbekiston uchun dolzarb bo‘lgan qator ilmiy yo‘nalishlarda tadqiqot markazlarini tashkil etdik. Ularning ayrimlari xorijda uzoq yillardan buyon muvaffaqiyatli faoliyat yuritgan, xalqaro akademik doiralarda tan olingan vatandosh olimlarimiz boshchiligida ish olib bormoqda. Biz uchun ularning tajribasi nihoyatda muhim.

> *“Bugungi kunda oliy o‘quv yurtlarining dasturlari, darsliklari, o‘quv rejalari ma’naviy jihatdan eskirgan, zamon talablariga javob bera olmaydi. Professor-o‘qituvchilarimizda vatanparvarlik, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik, fidoyilik yetishmayapti. Bugun jamiyatga Behbudiylar, Fitratlar, Avloniylar kerak.”*

Samarqand davlat universiteti kvant fizikasi markaziga AQShning Texas universiteti professori, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi Anvar Zohidov rahbarlik qilmoqda. Tadqiqotlar, asosan, energetika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va kvant nuqtalaridan amaliy foydalanishga qaratilgan. Bundan tashqari, yangi avlod aloqa tizimlari ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Bugun dunyo kvant texnologiyalari davriga kirib bormoqda. Bu jarayon sun’iy intellekt singari insoniyatga juda katta imkoniyatlar bilan birga muayyan xavflarni ham olib keladi. Kelajakda aloqa tizimlari tubdan o‘zgarishi, banklar va davlat idoralarida axborot xavfsizligini ta’minlashning yangi usullariga ehtiyoj tug‘ilishi muqarrar. Markazda ana shunday masalalar ustida ham izlanishlar olib borilmoqda.

Eng muhimi, Anvar Zohidov uch yil ichida universitetimizda o‘z ilmiy maktabini shakllantirishga erishdi. SamDU Muhandislik fizikasi institutini tamomlagan yosh fiziklarimizdan iborat jamoa shakllandi. Bugun ular mustaqil ravishda ilmiy izlanish olib borish darajasiga yetib kelmoqda. Menimcha, bu eng katta natijalardan biridir.

Samarqand davlat universitetining muhim yo‘nalishlaridan yana biri tog‘-kon sanoati bilan bog‘liq. Bu sohada alohida kafedra, ilmiy markazimiz va bir nechta laboratoriyalarimiz faoliyat yuritmoqda. Shulardan biri magnetizm salohiyatiga ega bo‘lishimiz kerak. Buning uchun hozirdanoq ilmiy maktab va malakali kadrlarni tayyorlash zarur. Sharof To‘g‘izovdek vatandosh olimlarimizning salohiyatidan foydalanish bu borada biz uchun katta imkoniyatdir.

Samarqand davlat universitetining yana bir dolzarb yo‘nalishi – suv muammolarini o‘rganish. Bu tadqiqotlarga ham AQShda faoliyat yuritayotgan vatandoshimiz Asqarali Karimov rahbarlik qilmoqda. Bunda shaharlarning ichimlik suvi ta’minoti, qishloq xo‘jaligida suvdan samarali foydalanish, shuningdek, transchegaraviy suv resurslari bilan bog‘liq masalalar o‘rganilmoqda.

Ayni paytda salohiyatli ilmiy jamoa shakllangan bo‘lib, mutaxassislar haftada bir-ikki marta onlayn formatda mavjud masalalarni batafsil muhokama qilishadi. Har bir tadqiqotchiga berilgan vazifalarning bajarilishi ko‘rib chiqiladi, natijalar tahlil etiladi, maslahat va ilmiy yo‘nalishlar beriladi. Bunday ish uslubi biz uchun juda samarali bo‘lmoqda.

Keyingi muhim ilmiy yo‘nalish mexanika bilan bog‘liq. Berlin texnika universiteti professori, taniqli olim Valentin Popov tribologiya yo‘nalishida universitetimiz bilan hamkorlik qilmoqda. Tribologiya bu ishqalanish, yeyilish va o‘zaro ta’sirlashuvchi sirtlar bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganuvchi muhim ilmiy yo‘nalishdir. Bu sohaning qo‘llanish doirasi juda keng: mashina va mexanizmlardan tortib tibbiyot va biomexanikagacha.

Valentin Popov boshchiligida yo‘nalishidagi laboratoriyadir. Bu yerda olib borilayotgan tadqiqotlar qazilmalarni samarali ajratib olish, ularning sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga qaratilgan.

Umuman olganda, universitetimizdagi ilmiy tadqiqotlarning aksariyatini amaliy yo‘nalishga qaratishga harakat qilyapmiz. Chunki biz uchun ilmiy natijaning iqtisodiyot va ishlab chiqarishga kirib borishi juda muhim. Ilm-fan ishlab chiqarish unumdorligini, qishloq xo‘jaligida hosildorlikni va mehnat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Bizning sharoitimizda ana shunday amaliy tadqiqotlar nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Samarqand davlat universitetining yana bir muhim yo‘nalishi – molekulyar biologiya. Universitetimizda bu yo‘nalishda laboratoriya tashkil etdik. Unga AQShda faoliyat yuritayotgan vatandoshimiz, asli urgutlik taniqli virusolog olim, professor Sharof To‘g‘izov ilmiy rahbarlik qilmoqda. Bu inson keyingi ikki-ikki yarim yil davomida yoshlarimizni tayyorlashga katta e’tibor qaratdi. Har hafta masofadan turib uchrashuvlar o‘tkazib, yosh tadqiqotchilarimizga vazifalar belgiladi, ularning natijalarini muhokama etdi, ilmiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib berdi. Shu vaqt davomida biz laboratoriyaning moddiy-texnik bazasini ham shakllantirdik. Bugun jamoa ham, laboratoriya ham jiddiy ilmiy faoliyatni boshlashga tayyor.

Sharof To‘g‘izov Prezidentimiz bilan Amerika Qo‘shma Shtatlarida uchrashganini va o‘sha muloqotda O‘zbekistonda virusologiya sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha muhim takliflarni ilgari surganini ta’kidlab keladi. Chunki XXI asrda virusologiyaning ahamiyati yanada ortadi. Biz, hech bo‘lmaganda, yangi viruslarni o‘z vaqtida aniqlash, o‘rganish va ularga qarshi samarali choralar ishlab chiqish universitetimizda tribologiya bo‘yicha yirik ilmiy laboratoriya shakllantirildi. Bu borada xitoylik hamkorlarimiz bilan ham birgalikda ish olib borilmoqda. Laboratoriyada ilmiy tadqiqotlar boshlangan. Ushbu yo‘nalishda bir necha yirik xalqaro va amaliy tadbirlarni ham o‘tkazdik. Jumladan, ortopediya va biomexanikaga bag‘ishlangan tadqiqotlar rivojlanmoqda. Inson qo‘l-oyoqlarining harakati, bo‘g‘imlar va mushaklar faoliyatining mexanik xususiyatlarini o‘rganish ham shu yo‘nalishning muhim qismlaridan biridir. Bu borada Samarqanddagi travmatologiya muassasalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

### Bugungi tadqiqot – ertangi taraqqiyot

Bugungi kunda universitetimiz ta’lim va ilmiy faoliyatiga 220 nafardan ortiq xorijiy professor-o‘qituvchilar jalb qilingan. Ularning oldiga ham aniq vazifalar qo‘yganmiz. Ular masofadan turib dars beradi, magistrantlar va yosh tadqiqotchilarga ilmiy rahbarlik qiladi.

Eng asosiy maqsadimiz – ularning har biri, hech bo‘lmaganda, bittadan PhD darajasidagi mutaxassis tayyorlashga hissa qo‘shishini ta’minlash. Chunki ana shu yosh mutaxassis keyinchalik o‘z yo‘nalishida katta ishlar qila oladi. AQSh, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarning yetakchi universitetlari ilmiy maktabini ko‘rgan, ularning tajribasini o‘zlashtirgan yosh olim ertaga shu tajribani O‘zbekistonda davom ettiradi. Shu bilan birga, u o‘zi tahsil olgan xorijiy universitet bilan bizning universitetimiz o‘rtasida mustahkam ilmiy ko‘prik vazifasini bajaradi.

Samarqand davlat universitetining yana bir strategik yo‘nalishi agrar sohadir. Bugun ekologik sharoit o‘zgarib bormoqda. Ayrim qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligiga salbiy ta’sir qilayotgan omillar ko‘paymoqda. Shu sababli seleksiya, urug‘chilik va zamonaviy biotexnologiyalarni o‘zimiz rivojlantirishimiz kerak. Bunda asosiy vazifalardan biri – universitetda gen muhandisligi markazini tashkil etish. Biz doimiy ravishda xorijdan nav va urug‘ sotib olishga qaram bo‘lib qolmasligimiz kerak. O‘zimizning ilmiy salohiyatimiz, o‘z maktabimiz va zamonaviy laboratoriyalarimiz bo‘lishi zarur. Bu oson vazifa emas, lekin biz uni albatta amalga oshirishimiz kerak.

Umuman, universitetimizda shakllantirilayotgan yetti-sakkizta ustuvor ilmiy yo‘nalishning barchasi bugungi O‘zbekiston uchun zarur bo‘lgan strategik sohalardir. Bizning asosiy maqsadimiz – ilm-fan orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini yangi texnologiyalar, zamonaviy usullar va innovatsion yechimlar bilan boyitish, universitet ilm-fanini ishlab chiqarish va jamiyat ehtiyojlari bilan yanada mustahkam bog‘lash. Buning uchun xalqaro tajribani o‘rganish, dunyoning yetakchi olimlarini jalb etish, yoshlarimizni kuchli ilmiy maktablarda tayyorlash va eng muhimi, bu bilim va tajribani O‘zbekistonda mustaqil ilmiy maktablarga aylantirishimiz kerak. Ana shunda bugun boshlayotgan ishlarimiz ertaga mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan barqaror natijalarga aylanadi.

Prezidentimiz ilgari surayotgan tashabbuslar oldinda bajaradigan ishlarimiz ko‘pligini ko‘rsatib turibdi. Xotirjamlikka berilmasdan, tinimsiz izlanishimiz, o‘rganishimiz shart va zarur. Bugun biz ilm-ma’rifat, olimu ziyoli qadrlanadigan, e’zozlanadigan mamlakatda yashayapmiz. Prezidentimizning har bir so‘zi bizni yangidan-yangi marralarga chorlaydi.

**Rustam XOLMURODOV,**
**Samarqand davlat universiteti rektori, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a’zosi.**

# BOLA XAVFSIZLIGINING MUHIM KAFOLATI

1

### NAFAQAT ZO‘RAVONLIK, BALKI RUHIY BOSIMDAN HAM HIMOYA QILINADI

**Gulruh AGZAMOVA,**
**Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo‘mitasi raisi:**



– Avvalo, bolalarimizning taqdiri, ularning xavfsizligi, ertangi kunga bo‘lgan ishonchi haqida gap ketganda, bu masalaga befarq qarab bo‘lmaydi. Bolaning eng xavfsiz joyi uyi, eng ishonchli insonlari esa ota-onasi va yaqinlari bo‘lishi kerak. Ammo hayotda ba’zan zo‘ravonlik aynan bola ishongan insonlar tomonidan sodir etilayotgani, bunday holatlar oilada yoki ta’lim muassasasida ham uchrayotgani achinarlidir.

Shu bois qonunda o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish jinoyatlari uchun uzoq muddatli yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini belgilash nazarda tutildi. Bundan tashqari, bolaning jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yoki jazoni ijro qilish muddati o‘tganligi sababli javobgarlikdan yoki jazodan ozod etmaslikka qaratilgan normalar ham qat’iylashtirildi. Bu orqali bolalarga nisbatan sodir qilingan og‘ir jinoyatlar uchun jazoning muqarrarligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy kafolatlar kuchaytirilmoqda.

Shu o‘rinda aytish kerak, hujjatning asosiy maqsadi faqat jazoni kuchaytirish emas, balki bolalarning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatini ishonchli himoya qilishga qaratilgan huquqiy kafolatlarni mustahkamlashdir. Ushbu qonunni ishlab chiqish va muhokama etish jarayonida yana bir muhim masalaga alohida e’tibor qaratildi. Ya’ni, zo‘ravonlikka uchragan bola nafaqat jinoyatning o‘zi, balki undan keyingi jarayonlardagi ruhiy bosimdan ham himoya qilinishi kerak.

Shundoq ham zo‘ravonlikdan jabrlangan bola o‘z boshidan kechirgan og‘ir voqealarni qayta-qayta aytib berishga, yordam so‘rab idorama-idora yurishga majbur bo‘lmasligi lozim. Shu bois qonunda voyaga yetmagan jabrlanuvchilar va guvohlarni so‘roq qilish jarayonini videoga yozib olish, jinsiy jinoyatlar bo‘yicha yuzlashtirishning alohida tartibini belgilash, bolaga nisbatan zo‘ravonlik uning yaqinlari tomonidan sodir etilgan hollarda vasiylik va homiylik organi vakilining protsessda ishtirokini ta’minlash masalalari nazarda tutildi. Buning zamirida oddiy, ammo muhim tamoyil bor: zo‘ravonlikdan jabrlangan bola huquqini himoya qilish jarayonining o‘zida yana bir bor jabrlanmasligi kerak.

Qolaversa, jabrlanuvchi va guvoh bo‘lgan bolalarga davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish mexanizmlarini mustahkamlash ham muhim normalardan biri hisoblanadi. Bu normalarning ahamiyati shundaki, bola o‘z huquqlarini himoya qilish jarayonida yanada ko‘proq ruhiy azobga duch kelmasligi, uning manfaatlari har qanday vaziyatda ustuvor bo‘lishi kerak.

### JAMIYATDAGI MUNOSABAT VA MAS’ULIYAT O‘ZGARISHI KERAK

**Dilmurod ISMOILOV,**
**Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi a’zosi:**

– Qonunchilikdagi o‘zgarishlar bilan birga, jamiyatdagi munosabat va mas’uliyat ham o‘zgarishi kerak. Bolaning sukuti uning roziligini anglatmaydi. U qo‘rquv, uyalish yoki uni hech kim eshitmasligiga ishongani uchun ham o‘z muammosini ayta olmasligi mumkin. Shuning uchun kattalar bolaning xatti-harakatlariga, kayfiyatiga, yordam so‘rashga qaratilgan ishoralariga befarq bo‘lmasligi zarur.

Qonunda voyaga yetmaganlarga nisbatan qasddan og‘ir va o‘rtacha og‘ir tan jarohati yetkazish, 16 yoshga to‘lmaganlarga nisbatan guruh bo‘lib buzuq harakatlar sodir etish uchun javobgarlikni kuchaytirish, bolani g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish, bolalarga zararli axborot tarqatish bilan bog‘liq qoidabuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari, ta’lim-tarbiya jarayonida pedagog tomonidan zo‘ravonlik sodir etilishi mehnat shartnomasini ish beruvchi tashabbusi bilan bekor qilish uchun asos bo‘lishi mumkinligi ham belgilanmoqda.



Biroq bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish faqat qonunchilikdagi qat’iy normalar bilan cheklanmaydi. Yuqorida aytilganidek, bu jarayonda jamiyatning ziyrakligi va befarq bo‘lmasligi ham muhim. Chunki bola har doim ham o‘zi duch kelgan xavfni ochiq ayta olmaydi. Shuning uchun uning xulq-atvoridagi o‘zgarishni payqash, yordamga muhtojligini anglash va o‘z vaqtida himoya qilish ota-ona, pedagog, mahalla va umuman, bola atrofidagi har bir kattaning mas’uliyatidir.

Zero, bolani himoya qilish – zo‘ravonlik sodir bo‘lganidan keyin jazo qo‘llashdangina emas, uning oldini o‘z vaqtida ko‘ra bilishdan ham boshlanadi. Biz, kattalar bolaning qo‘rquvsiz yashashi, yordam so‘raganda eshitilishi, huquqi buzilganda himoya qilinishi va og‘ir voqeadan keyin ham o‘zini yolg‘iz his etmasligini ta’minlashimiz lozim.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning hech bir ko‘rinishi e’tiborsiz qolmasligi kerak. Bu talabning huquqiy asosi qonun bilan mustahkamlanadi. Ammo uning hayotdagi haqiqiy kuchini bolaga nisbatan munosabat – ovoziga quloq tutish, huquqini hurmat qilish va unga bo‘lajak xavfni o‘z vaqtida sezish belgilaydi.

**“Xalq so‘zi”.**

**2027-yil 1-yanvardan rasmiy daromadga ega bo‘lgan shaxslarga ishlamaydigan oila a’zolari ish stajiga ega bo‘lishi uchun har oyda ixtiyoriy ravishda mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 12 foizi darajasida ijtimoiy soliq to‘lash huquqi beriladi.**

**Munosabat**

# TA’LIMDA YANGI BOSQICH: SIFAT VA UZVIYLIK

*Bugun dunyoda mamlakat taraqqiyotini belgilab beradigan eng muhim omillardan biri bu inson kapitali hisoblanadi. Zamonaviy raqobatbardosh mehnat bozori sifatli ta’lim va kuchli ilm-fan tizimiga tayanadi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda ta’limning barcha bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish va inson kapitalini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.*

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining fikr-mulohazalari shu haqda.*

**Dilmurod ARTIQOV,**
**Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi a’zosi:**



– Insonning ta’lim olish jarayoni maktabga kirganidan keyin emas, balki bolalik davridan boshlanadi. Maktabgacha ta’limda shakllangan ko‘nikmalar umumiy o‘rta ta’limda rivojlanadi, keyinchalik kasbiy yoki oliy ta’limda chuqurlashadi. Oliy ta’lim esa ilm-fan va innovatsiyalar bilan uyg‘unlashgandagina mamlakat uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlay oladi. Shu bois ta’limning har bir bosqichini alohida-alohida emas, yaxlit uzluksiz tizim sifatida ko‘rish muhim.

Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim va ilm-fan vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni alohida ahamiyatga ega. Unga ko‘ra Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi negizida Ta’lim va ilm-fan vazirligi tashkil etildi. Bu oddiy tashkiliy o‘zgarish emas, balki ta’lim tizimiga bo‘lgan yondashuvning o‘zgarishidir.

Qayd etish lozimki, bugun zamonaviy ta’lim tizimida faqat diplom berishning o‘zi yetarli emas. Asosiy masala – insonning butun hayoti davomida bilim olishi, kasbiy ko‘nikmalarini yangilab borishi va o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslasha olishi. Shu ma’noda, ta’lim tizimini maktabgacha ta’limdan boshlab umumiy o‘rta, kasbiy va oliy ta’lim orqali ilm-fangacha bo‘lgan yagona zanjir sifatida tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Farmonda oliy ta’lim va ilm-fanning o‘zaro integratsiyasiga alohida e’tibor qaratilgan. Chunki universitet faqat tayyor bilimlarni o‘rgatadigan muassasa emas. U yangi bilim va innovatsiyalarni yaratadigan markaz ham bo‘lishi kerak. Talaba auditoriyada olgan bilimini ilmiy izlanishlar bilan boyitsa, professor-o‘qituvchi ilmiy tadqiqot natijalarini ta’lim jarayoniga olib kirsa, ilm-fan esa real iqtisodiy va ijtimoiy muammolar yechimiga xizmat qilsa ta’lim va ilm-fanning haqiqiy integratsiyasi yuzaga keladi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatning texnologik va intellektual salohiyatini oshiradi.

Zamonaviy dunyoda insonning yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashi, o‘z qobiliyatini rivojlantirishi va kasbiy salohiyatini oshirishi butun umr davom etadigan jarayonga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yaqinda parlament tomonidan qabul qilingan qonun bilan qo‘shimcha ta’limning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga qaratilgan muhim o‘zgartishlar belgilandi. Unda qo‘shimcha ta’lim imkoniyatlarini nafaqat bolalar, balki katta yoshdagi fuqarolar uchun ham kengaytirish nazarda tutilgan. Mazkur o‘zgartishlarning amaliyotda samarali va tizimli ijrosini ta’minlashda yangi tashkil etilgan Ta’lim va ilm-fan vazirligi muhim o‘rin tutadi. Chunki yangi vazirlik maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, qo‘shimcha va norasmiy ta’limgacha bo‘lgan yo‘nalishlarda yagona davlat siyosatini amalga oshiradi.

Umuman, Ta’lim va ilm-fan vazirligi zimmasiga keng qamrovli vazifalar yuklanmoqda. U nafaqat turli ta’lim bosqichlarida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi, balki ularni rivojlantirish va tartibga solish bo‘yicha ham asosiy ijro etuvchi hokimiyat organi bo‘ladi. Bu esa boshqaruvdagi mas’uliyatni aniq belgilash va ta’lim siyosatida yagona yondashuvni ta’minlash uchun muhim imkoniyatdir.

**Hilola YUSUPOVA,**
**Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi a’zosi:**



– Bugun maktabga kirgan bolaning ertaga qanday bilim va kasb egasi bo‘lib yetishishi, yoshlarning zamonaviy mehnat bozorida munosib o‘rin topishi – ta’lim siyosati oldida turgan muhim vazifalar.

Prezidentimiz farmoni bilan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi negizida Ta’lim va ilm-fan vazirligi tashkil etilgani sohada yangi bosqichni boshlab beruvchi muhim qadam bo‘ldi. Farmonda maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ular o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash, maktab ta’limini kasbiy va oliy ta’lim, oliy ta’limni esa ilm-fan bilan yaqindan integratsiya qilish vazifasi belgilangan.

Bog‘chadagi ilk ko‘nikmalar maktabdagi bilimga, maktabdagi ta’lim kasbiy yoki oliy ta’limga, ular esa ilm-fan va mehnat bozori ehtiyojlariga uzviy bog‘lanishi kerak.

So‘nggi yillarda ta’lim sohasidagi islohotlar doirasida yangi maktablar va ta’lim muassasalari barpo etildi, maktabgacha ta’lim qamrovi kengaydi, zamonaviy darsliklar yaratildi, ta’lim olish imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi. Endi asosiy vazifa – yaratilgan imkoniyatlarni yagona tizimga birlashtirish, ta’lim mazmuni va sifatini zamon talablariga moslashtirish, har bir bosqichda erishilgan natijani keyingi bosqich uchun mustahkam poydevorga aylantirish.

Ta’limdagi islohotlarning barqarorligi mustahkam huquqiy asosni talab qiladi. Yangi ta’lim shakllari, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, dual va inklyuziv ta’limning kengayishi, pedagoglarning kasbiy rivojiga qo‘yilayotgan yangi talablar qonunchilikni ham zamon bilan hamnafas takomillashtirib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bu o‘rinda parlamentning o‘rni alohida. Sohaga oid qabul qilingan qonunlarning amalda qanday ishlayotganini o‘rganish, pedagoglar, ota-onalar, o‘quvchi va talabalarning fikrini eshitish, zarur hollarda qonunchilikni takomillashtirish faoliyatimizning muhim yo‘nalishlaridir.

Shu bois bugun ta’lim sohasidagi qonun ijodkorligida yangi munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash, ta’lim oluvchi va pedagogning huquq hamda manfaatlarini yanada kafolatlash, ta’lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan normalarni hayot talablari bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**“Xalq so‘zi”.**

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 6-oktyabr

# O‘ZBEKISTON SPORTI SALOHIYATINING YANA BIR YORQIN IFODASI



Muhammad AMIN (O‘zA) olgan suratlar.

1

Qit’amizda har to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladigan Osiyo o‘yinlari nafaqat sportchilar mahorati, balki mamlakatlar sport salohiyatining ham o‘ziga xos ko‘zgusidir. Bu galgi musobaqada 45 davlatdan 11 ming nafarga yaqin sportchilar ishtirok etdi. Sportning 43 turi va 71 ta yo‘nalishi bo‘yicha kechgan bahslarda jami 1 407 ta medal uchun kurash olib borildi.

O‘zbekiston delegatsiyasi sportning 42 turi bo‘yicha musobaqalarda qatnashdi. Ularning 36 tasi olimpiya, 6 tasi noolimpiya sport turlaridir. Milliy terma jamoalarimiz tarkibida 396 nafar sportchi – 224 erkak va 172 ayol mamlakatimiz sharafini himoya qildi.

Quvonarlisi, yurtdoshlarimiz sohil voleyboli, voleybol, yelkanli sport, skvosh va MMA bo‘yicha Osiyo o‘yinlarida ilk bor qatnashdi. Ayni paytda kamondan otish, chim ustida xokkey, tennis, serfing, triatlon va skvosh bo‘yicha “Los-Anjeles – 2028” yozgi Olimpiya o‘yinlariga yo‘llanmalar uchun ham kurash olib borildi.

Murosasiz kechgan bahslar yakunida sportchilarimiz 21 ta oltin, 25 ta kumush va 24 ta bronza – jami 70 ta medalni qo‘lga kiritdi. Bu natija bilan O‘zbekiston delegatsiyasi umumjamoa hisobida kuchli beshlikdan o‘rin egalladi.

Prezidentimiz tabrigida ta’kidlanganidek, Osiyo o‘yinlaridagi har bir yutuq, har bir hayajonli daqiqa biz uchun o‘ziga xos bayram, zavq va quvonch ayyomi ekanini qariyb bir oy davomida barchamiz chin dildan his etdik.

Qo‘lga kiritilgan g‘alabalar Yangi O‘zbekistonning sport sohasidagi salohiyatidan, mard va bahodir farzandlarimizning qanday ulug‘ ishlarga qodir ekanidan dalolatdir. Bu, hech shubhasiz, barchamizga, ko‘p millatli butun xalqimizga cheksiz g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

O‘zbekiston ushbu o‘yinlarda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Islom hamkorlik tashkiloti davlatlari orasida birinchi o‘rinni egallagani ham, albatta, e’tiborga molik.

Yaponiyadagi Osiyo o‘yinlari dunyo va qit’a sporti tarixida yangi rekordlar bilan ham yodda qoldi. Musobaqalar davomida qator sport turlari bo‘yicha 89 ta Osiyo rekordi yangilandi. Shuningdek, 54 ta jahon rekordi, 212 ta Osiyo o‘yinlari rekordi va 11 ta jahon o‘smirlar rekordi qayd etildi.

Bunday yuksak natijaga erishganlar orasida O‘zbekiston sportchilari ham bor. Jumladan, og‘ir atletika bo‘yicha erkaklar o‘rtasida 110 kilogramm vazn toifasida bahs olib borgan Akbar Jo‘rayev oltin medalni qo‘lga kiritish barobarida dast ko‘tarishda dastlab 190 kilogramm og‘irlikni bo‘ysundirib, Osiyo o‘yinlari rekordini o‘rnatdi. Uchinchi urinishda esa 197 kilogramm natija qayd etib, jahon rekordini yangiladi.

O‘q otish bahslarida ham yurtimiz vakili yuksak mahorat namoyish etdi. Vladimir Svechnikov 10 metr masofadan pnevmatik to‘pponchadan otish dasturida 244,3 ochko jamg‘arib, Osiyo o‘yinlari rekordini o‘rnatdi. Bu natija unga oltin medalni ham taqdim qildi.

Bugun sport dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi raqobat maydoni bo‘lish bilan birga, milliy imijni shakllantirishning muhim vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Chunki xalqaro musobaqalarda g‘olib bo‘lgan sportchi bilan birga uning bayrog‘i, madaniyati, milliy timsollari va Vatan sha’ni ham dunyo sahnasiga chiqadi.

Yaponiyadagi musobaqalarda ham bu holat yana bir bor yaqqol namoyon bo‘ldi. O‘zbekiston sportchilari Eron, Tailand, Qozog‘iston, Xitoy Taypeyi, Bahrayn, Shimoliy Koreya, Gonkong, Indoneziya, Qatar, Singapur, Malayziya, Vyetnam, Kuvayt kabi sport sohasida salmoqli tajribaga ega mamlakatlar vakillarini ortda qoldirdi. Umumjamoa hisobida Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya va Hindistondan keyin beshinchi o‘rinni egallab, milliy sportimiz tarixida yana bir yorqin sahifa ochdi.

– Vatanimizning xalqaro maydonda obro‘-e’tiborini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shish – eng oliy baxt, – deydi og‘ir atletika bo‘yicha Osiyo o‘yinlari g‘olibi Akbar Jo‘rayev. – O‘zbekiston sportchilari Osiyo o‘yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, butun dunyoga mardlik va jasorat bobida ulug‘ zotlarning munosib vorislari ekanini isbotladi. Xalqimizning, Prezidentimizning ishonchini oqlaganimizdan xursandman.

Sportchilarimizning qit’aning eng nufuzli musobaqasida muvaffaqiyatli qatnashishi zamirida tizimli va maqsadli tayyorgarlik mujassam. Davlatimiz rahbarining 2025-yil 8-iyuldagi “2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSh) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qarori asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar sportchilarimizning xalqaro maydondagi salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Alohida dastur doirasida sportchilar uchun zamonaviy talablar asosida o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarini o‘tkazish, xalqaro tajribani o‘rganish, mahoratini oshirish, nufuzli musobaqalarga puxta tayyorgarlik ko‘rish uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Aichi va Nagoyadagi bahslar esa ana shu tizimning navbatdagi muhim sinovi bo‘ldi. Bu yerda qayd etilgan natijalar O‘zbekistonda Olimpiya harakati rivoji yangi bosqichga ko‘tarilganini, bu yo‘lda yangi oltin avlod shakllanganini butun dunyoga namoyon qildi. Va bunday yorqin g‘alabalarning yana bir ahamiyatli tomoni ular xalqimizning milliy g‘ururini yuksaltirish bilan birga, yoshlar qalbida sportga mehr va ishonchni yanada kuchaytiradi. Chempionlarning har bir zafari minglab yigit-qizlar uchun ezgu orzu-maqsadlar, yangi marralar sari da’vatdir.

Sport maydonidagi har bir g‘alaba zamirida yillar davomidagi mashaqqat, intizom, iroda va Vatanga sadoqat yotadi. Aeroportda baland ko‘tarilgan O‘zbekiston bayrog‘i va yangragan olqishlar ana shu mehnatning munosib e’tirofi bo‘ldi.

Sportchilarimizni oldinda yangi dovonlar kutib turibdi. Davlatimiz rahbari tabrigida ishonch bilan qayd etilganidek, Yaponiya zaminida to‘plangan qimmatli tajriba 2028-yilda Los-Anjelesda o‘tadigan Olimpiya o‘yinlari uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Tantanali marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sport bo‘yicha vakili Odil Abdurahmonov ishtirok etdi.

**Dilshod KARIMOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# XALQ MANFAATI – QONUNCHILIK MUHOKAMALARINING ASOSIY MEZONI

*Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi. Ularda ijtimoiy-siyosiy hayotimizga doir masalalar hamda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko‘rib chiqildi.*

## Fraksiyalar hayoti

**Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida Prezidentimizning O‘qituvchi va murabbiylar kuni arafasida pedagoglar bilan uchrashuvida ilgari surilgan tashabbuslarning ahamiyati haqida so‘z yuritildi.

Deputatlar har yili 208 ta tuman va shahardagi yetakchi muallimlarni mukofotlash, ming nafar pedagogni xorijda stajirovkaga yuborish, milliy sertifikatga ega o‘qituvchilarga 50 foiz ustama to‘lashga oid tashabbuslarni alohida e’tirof qilishdi.

Ilg‘or pedagoglar uchun Abdulla Avloniy nomidagi davlat mukofotini ta’sis etish, bitiruvchilarni kasb va xorijiy tilga o‘rgatish, aniq va tabiiy fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish kabi vazifalar o‘qituvchilik kasbining jamiyatdagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Fraksiya a’zolari intellektual mulkning huquqiy muhofaza va himoya tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini ham ko‘rib chiqishdi.

Ta’kidlanganidek, ushbu hujjat bilan xizmat asarlariga oid mulkiy huquqlarning muayyan muddat o‘tgandan so‘ng avtomatik tarzda muallifga o‘tishiga oid qoidani bekor qilish orqali tomonlarning kelishuviga ustuvor ahamiyat berish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda innovatsion mahsulotlar yaratish jarayonida huquqiy barqarorlikni ta’minlash nazarda tutilmoqda.

Muhokama davomida fraksiya a’zolari Ruslan Sobirov, Shahnoza Xolmahamatova va boshqalar qonun loyihasining ahamiyati va dolzarbligiga alohida to‘xtalib, undagi ayrim normalarni takomillashtirish yuzasidan



qator takliflarni ilgari surdi. Mutasaddilar bildirilgan takliflar qonun loyihasini yanada takomillashtirish va maromiga yetkazish jarayonida inobatga olinishini ta’kidlashdi.

Fraksiya a’zolari mazkur qonun loyihasining muhimligini e’tiborga olgan holda, uni qo‘llab-quvvatladi.

**“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri – ta’lim sohasidagi yangilanishlarning ahamiyatiga e’tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbarining Ta’lim va ilm-fan vazirligini tashkil etish to‘g‘risidagi farmoni, unda ko‘zda tutilgan vazifalar hamda islohotlarning mazmun-mohiyati partiya dasturida belgilangan ta’limni modernizatsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarga sifatli va zamonaviy bilim olish uchun keng imkoniyatlar yaratish, sog‘lom raqobatni qo‘llab-quvvatlash kabi ustuvor maqsadlar bilan hamohang ekani alohida ta’kidlandi.

Yig‘ilishda O‘zbekiston terma jamoasining 46-jahon shaxmat olimpiadasidagi tarixiy g‘alabasi ham muhokama markazida bo‘ldi.

Fraksiya rahbari Alisher Qodirov ushbu voqelikka munosabat bildirib, bu muvaffaqiyatni nafaqat sport g‘alabasi, balki Yangi O‘zbekistonda intellektni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasi bilan ham bog‘lash mumkinligini aytdi.

Yig‘ilishda, shuningdek, intellektual mulkni huquqiy muhofaza va himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokamaga tortildi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda intellektual mulk bilan bog‘liq islohotlar mualliflik huquqidagi ayrim normalarni o‘zgartirish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Jumladan, qonun loyihasi bilan xizmat asarlariga oid mulkiy huquqlarning asar chop etilganidan 10 yil o‘tganidan so‘ng avtomatik tarzda muallifga o‘tishiga oid tartib bekor qilinyapti.

Fraksiya a’zolarining qayd etishicha, qonun loyihasining qabul qilinishi intellektual mulk obyektlarini muhofaza va himoya etish tartiblarini takomillashtirish, mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda tadbirkorlarning bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlandi.

**“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida dastlab deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyati yakunlari muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, fraksiya a’zolari 30-sentyabr – 2-oktyabr kunlari saylov okruglarida aholi bilan uchrashuvlar o‘tkazib, fuqarolarning murojaatlarini tingladi, ijtimoiy soha obyektlari, mahallalar hamda tadbirkorlik subyektlarida bo‘lib, hududlardagi dolzarb masalalarni o‘rgandi. Jami 264 ta obyekt qamrab olinib, 167 ta uchrashuvda 3 816 nafar aholi ishtirok etdi, 114 nafar fuqaroning murojaatlari sayyor qabullarda eshitildi. Aniqlangan muammolarga yechim topish bo‘yicha mas’ul tashkilotlar bilan tegishli choralar belgilandi.

Deputatlarning fikricha, xalq vakillarining saylov okrugidagi faoliyati, avvalo, aholi bilan ochiq muloqot qilish, ayrim masalalarni joyida o‘rganish va amaliy yechim topishga qaratilmog‘i lozim.

Shuningdek, yig‘ilishda intellektual mulk bo‘yicha huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham atroflicha ko‘rib chiqildi.

Muhokama davomida xizmat asarlariga bo‘lgan mulkiy huquqlarni belgilash tartibiga alohida e’tibor qaratildi. Amaldagi qoidaga ko‘ra, ayrim hollarda, shartnomada boshqacha tartibda belgilanganidan qat’i nazar, asar oshkor qilinganidan 10 yil o‘tgach, unga bo‘lgan mulkiy huquqlar avtomatik ravishda muallifga o‘tishi mumkin. Qonun loyihasida esa mazkur tartibni bekor qilish hamda xizmat asariga bo‘lgan mulkiy huquqlarni ish beruvchi va muallif o‘rtasidagi kelishuv asosida belgilash nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, intellektual mulk obyektlari bo‘yicha davlat ekspertizasi qarorlaridan norozi bo‘lgan shaxslarga bevosita sudga murojaat qilish huquqini berish taklif etilmoqda. Bu orqali Konstitutsiyada kafolatlangan sud orqali himoya qilish huquqini ta’minlash mexanizmlari kuchaytiriladi.

Muhokamada qonun loyihasini takomillashtirishga qaratilgan taklif va mulohazalar bildirildi hamda konseptual jihatdan qo‘llab-quvvatlandi.

**O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish va himoyalash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, qonun loyihasi bilan tadbirkorlar va investorlar uchun qulay huquqiy muhit yaratish, xizmat asarlariga bo‘lgan mulkiy huquqlarning 10 yil o‘tgach avtomatik ravishda muallifga o‘tishiga oid qoidani bekor qilish hamda mazkur masalani tomonlarning kelishuvi asosida belgilash taklif etilmoqda.

Deputatlar bunda tomonlarning kelishuvi ustuvorligini ta’minlash bilan birga, xodimning mehnati natijasida yaratilgan intellektual mahsulotga nisbatan uning huquq va manfaatlari kafolatlanishi ham



muhimligini ta’kidlashdi.

Muhokama jarayonida fraksiya a’zolari tashabbuskorlarga qator savollar bilan murojaat qildi.

Jumladan, deputat Zokirjon Zohidov intellektual mulk egalari tomonidan patent olish uchun berilgan murojaatlarni rad etish sabablarini apellyatsiya shikoyati ko‘rib chiqilguniga qadar ochiqlashga nimalar to‘sqinlik qilayotgani, shuningdek, ekspertlarni jalb etishda qaysi mezonlarga asoslanilishi bilan qiziqdi.

Fraksiya a’zosi Anvarxon Temirov intellektual mulk egalarining patent bo‘yicha davlat bojini to‘lamaganlik sabablari tahliliga e’tibor qaratdi. Fraksiya a’zosi Firdavs Sharipov esa qonun loyihasida patentlarni o‘z kuchida saqlash uchun belgilangan bojlarni besh yillik davr uchun oldindan to‘lash imkoniyati yaratilayotgani sabablariga izoh so‘radi.

Qonun loyihasiga mas’ullar deputatlarni qiziqtirgan savollarga atroflicha tushuntirish berishdi. Qizg‘in muhokamadan so‘ng hujjat konseptual jihatdan qo‘llab-quvvatlandi.

**O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida intellektual mulk obyektlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, tadbirkorlar uchun qulay huquqiy muhit yaratishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama markazida bo‘ldi.

Munozaralarda intellektual mulk bilan bog‘liq sanoat mulki va mualliflik huquqi bo‘yicha ayrim qoidalarni xalqaro amaliyot hamda shartnoma erkinligi tamoyillariga muvofiqlashtirish zarurligi ta’kidlandi. Bu, o‘z navbatida, tadbirkorlik uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishni nazarda tutadi.

Qonun loyihasida, avvalo, xizmat asarlariga bo‘lgan mulkiy huquqlar bilan bog‘liq qoidalarni takomillashtirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, intellektual mulk obyektlari bo‘yicha davlat ekspertizasi qarorlaridan norozi bo‘lgan shaxslarga Apellyatsiya kengashiga murojaat etish bilan bir qatorda, bevosita sudga shikoyat qilish huquqini berish nazarda tutilmoqda. Bu orqali Konstitutsiyada kafolatlangan sud orqali himoyalanish huquqini ta’minlash mexanizmlarini mustahkamlash samaradorligini oshirish maqsad qilingan.

Qonun loyihasida patent egalari uchun ham qo‘shimcha qulayliklar yaratish belgilanmoqda.

Qizg‘in muhokamadan so‘ng qonun loyihasi fraksiya a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

**“Xalq so‘zi”.**

# «BITTA ASKAR – BITTA KASB»

*Shimoli-G‘arbiy harbiy okrugida muddatli harbiy xizmatchilarning bir yillik davri davomida bilim hamda ko‘nikmalarini oshirish, zamonaviy kasblarga o‘qitish va o‘qishga tayyorlashga mo‘ljallangan yangi – Oliy ta’limga tayyorlash va kasbga o‘qitish markazi ochildi.*

## Mudofaa va ta’lim

Nukus shahrida hayotga tatbiq etilgan mazkur tashabbus muddatli harbiy xizmatni yoshlar uchun nafaqat Vatan himoyasi maktabi, balki bilim hamda kasb egallashning muhim bosqichiga aylantirishga qaratilgan “Bitta askar – bitta kasb” tamoyilining amaliy ifodasidir.

Ta’kidlash joizki, davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan muddatli harbiy xizmatchilar uchun xizmat davrida oliy ta’limga kirish va kasbiy tayyorgarlik olish imkoniyatlari yanada kengaytirildi. Jumladan, 2026/2027 o‘quv yilidan boshlab askarlarga xizmatni o‘tash davrida oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichiga masofaviy ta’lim shaklida o‘qishga kirish uchun ro‘yxatdan o‘tish va kirish imtihonlarida ishtirok etish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarni kasbga o‘qitish bo‘yicha 3 – 6 oylik o‘quv kurslarini tashkil qilish belgilandi.

Shimoli-G‘arbiy harbiy okrug matbuot xizmati xabariga ko‘ra, bugungi kunda mazkur imkoniyatlar amaliyotda o‘z ifodasini topayotir. 2026/2027 o‘quv yilida Shimoli-G‘arbiy harbiy okrugida muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan 68 nafar askar oliy



ta’lim muassasalariga qabul qilindi. Qolgan harbiy xizmatchilar esa turli kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha tahsil olmoqda.

Yangi markazda zamonaviy o‘quv xonalari hamda zarur shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lib, bu yerda muddatli harbiy xizmatchilar oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rish bilan bir qatorda, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallaydi. Ta’lim jarayonlariga malakali mutaxassis hamda pedagoglarni jalb etish, mashg‘ulotlarni zamonaviy metodlar asosida tashkil qilish orqali yoshlarning intellektual va kasbiy salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Harbiy xizmat davomida egallangan bilim, kasb va ko‘nikmalar yoshlarning kelgusidagi ta’limi hamda mehnat faoliyati uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

**“Xalq so‘zi”.**

**2027/2028 o‘quv yilidan OTMlarda ish beruvchi korxonalarning buyurtmalari asosida va bitiruvchini ishga qabul qilish sharti bilan dual ta’lim shaklida kadrlar tayyorlash tizimi joriy etiladi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-1042. 17 780 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Marshabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 21.35 Topshirildi – 22.50 1 2 3 4 5 6